



LEGAL CONCEPTUAL BASIS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CENTRAL ASIAN PARTY SYSTEMS

T.B. Abdullaeva

Doctoral Researcher

Institute for the Study of Youth Issues and Training of Promising Personnel

Email: takhmina.abdullaeva02@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, party system, political parties, legal foundations, constitution, electoral legislation, political competition, legal reforms.

Received: 10.07.25

Accepted: 11.07.25

Published: 12.07.25

Abstract: This article analyzes the processes of formation and development of party systems in the countries of Central Asia, focusing on their legal foundations and role within the political system. The research examines the legal status of political parties in the post-independence period, their constitutional bases, electoral legislation, and the emergence of inter-party competition. A comparative legal analysis of the regional experiences is provided, along with practical recommendations for improving party systems. The article aims to explore the evolution of party systems within the framework of political and legal reforms using a legal-conceptual approach.

MARKAZIY OSIYO PARTIYAVIY TIZIMLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING HUQUQIY KONSEPTUAL ASOSLARI

T.B. Abdullaeva

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli

kadrlarni tayyorlash instituti doktoranti,

takhmina.abdullaeva02@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, partiyaviy tizim, siyosiy partiyalar, huquqiy asoslar, konstitutsiya, saylov qonunchiligi, siyosiy raqobat, huquqiy islohotlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, ularning huquqiy asoslari hamda siyosiy tizimdagi o'рни tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda siyosiy

partiyalarning huquqiy maqomi, ularning konstitutsiyaviy asoslari, saylov qonunchiligi va partiyalararo raqobat muhitining shakllanishi kabi omillar o'rganilgan. Shuningdek, mintaqadagi mamlakatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida tahlil qilinib, partiyaviy tizimlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola siyosiy-huquqiy islohotlar jarayonida partiyaviy tizimlar rivojlanishini huquqiy yondashuvlar asosida o'rganishga qaratilgan.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ПАРТИЙНЫХ СИСТЕМ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Т.Б. Абдуллаева

Докторант

Института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

takhmina.abdullaeva02@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, партийная система, политические партии, правовые основы, конституция, избирательное законодательство, политическая конкуренция, правовые реформы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы формирования и развития партийных систем в странах Центральной Азии, их правовые основы и роль в политической системе. В исследовании анализируются правовой статус политических партий в постсоветский период, их конституционные основы, избирательное законодательство и формирование среды межпартийной конкуренции. Кроме того, на основе сравнительно-правового анализа изучен опыт стран региона и разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию партийных систем. Статья направлена на изучение развития партийных систем в контексте политико-правовых реформ с акцентом на правовой подход.

Kirish

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo siyosiy xaritasida yuz bergan tub o'zgarishlar, xususan, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari o'z siyosiy tizimlarini shakllantirish, demokratik institutlarni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida jadal harakat qila boshladilar. Ushbu jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri siyosiy partiyalarning tashkil topishi va ularning huquqiy asosda faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat bo'ldi.[1;67]

Partiyaviy tizimlar har qanday demokratik davlatning siyosiy tuzilmasida markaziy o‘rin tutadi. Ular nafaqat saylovlar orqali hokimiyatni shakllantirish, balki ijtimoiy manfaatlarni ifoda etish, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va jamiyat bilan davlat o‘rtasida vositachilik qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu bois Markaziy Osiyo mamlakatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masaladir.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqillik yillarida shakllangan partiyaviy tizimlari, ularning huquqiy asoslari, qonunchilikdagi o‘ziga xosliklar hamda siyosiy raqobat muhitini vujudga keltirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqadagi partiyaviy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolar qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Markaziy Osiyo mamlakatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar son jihatdan cheklangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bu boradagi qiziqish ortib bormoqda. Mazkur mavzu doirasida milliy va xorijiy manbalar, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda mintaqaviy qonunchilik bazasiga tayanilgan holda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xususan, siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlar konsepsiyasini nazariy jihatdan asoslab bergan G. Sartori, M. Dyuverje kabi siyosatshunos olimlarning asarlari ushbu yo‘nalishda tayanch nazariy manbalar hisoblanadi. Ularning partiyaviy tizimlarni tasniflash va tahlil qilishga oid metodologiyasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.[2;112]

Markaziy Osiyo davlatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi masalasi siyosiy-huquqiy ilmiy doiralarda nisbatan yangi, biroq dolzarb tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, partiyaviy tizimlar nafaqat siyosiy institut sifatida, balki huquqiy me‘yorlarga tayanadigan siyosiy tuzilma sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Dunyo siyosatshunoslik fanida partiyaviy tizimlarni nazariy asoslab bergan klassik olimlardan biri G. Sartori hisoblanadi. Uning “Partiyalar va partiyaviy tizimlar: Racional tasniflashga asos” (1976) nomli asari bugungi kunda ham siyosiy partiyalarni o‘rganishda asosiy nazariy manbalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sartori partiyaviy tizimlarni raqobat shakllari asosida tasniflab, ko‘ppartiyaviylik va yagona partiyaviylik holatlarini siyosiy raqobat mezonlari orqali farqlagan. Bu yondashuv Markaziy Osiyodagi raqobat cheklangan partiyaviy tizimlarni tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.[3;84]

Fransuz olimi M. Dyuverje esa o'zining "Siyosiy partiyalar" nomli asarida saylov tizimining partiyaviy tizimga ta'sirini o'rganib, "Dyuverje qonuni" degan mashhur nazariyani ilgari surgan. Unga ko'ra, majoritar (ko'pchilik asosidagi) saylov tizimi ikki partiyali tizimni, proporsional tizim esa ko'ppartiyaviylikni shakllantiradi. Markaziy Osiyodagi saylov qonunchiligini tahlil qilganda, ko'pchilik asosidagi tizimlar partiyalararo raqobatni cheklab qo'yganini ko'rish mumkin, bu esa Dyuverje nazariyasi bilan uyg'unlashadi.

O'zbekistonlik olimlardan M. Jo'rayev, Z. Qodirov, A. Saidov va boshqalarning siyosiy partiyalar faoliyati, partiyaviy tizimlarning huquqiy asoslari, fuqarolik jamiyati bilan o'zaro aloqalari borasidagi izlanishlari muhim ilmiy manba sifatida baholanadi. Xususan, M. Jo'rayev O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik shakllanishi va uning konstitutsiyaviy asoslarini tahlil qilgan, siyosiy pluralizmni mustahkamlash uchun qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan.[4;154]

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda partiyaviy tizimlarning shakllanishi nazariy jihatdan dunyo siyosatshunosligi bilan uyg'un, biroq amaliy jihatdan raqobat muhitining zaifligi, partiyalarning ijtimoiy tayanchi yetarli emasligi va ularning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi roli cheklangani sababli partiyaviy tizimlar hali to'liq funksional darajaga chiqqan olmagan.

Ushbu tadqiqotda huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, tarixiy va sistemali tahlil metodlari qo'llanildi.

1. Huquqiy tahlil usuli orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, konstitutsiyaviy me'yorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganildi.

2. Qiyosiy-huquqiy yondashuv yordamida turli mamlakatlardagi partiyaviy tizimlar, ularning shakllanishi, huquqiy asoslari va siyosiy amaliyoti o'zaro solishtirilib, o'xshashlik va farqlarga aniqlik kiritildi.

3. Tarixiy metod asosida mustaqillikdan so'nggi bosqichlarda partiyaviy tizimlar rivojining tarixiy ketma-ketligi va siyosiy transformatsiya jarayonlari yoritildi.

4. Sistemali tahlil metodi esa partiyaviy tizimni siyosiy tizimning tarkibiy elementi sifatida qarashga, uning boshqa institutlar (parlament, saylov tizimi, fuqarolik jamiyati) bilan o'zaro aloqalarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida statistik ma'lumotlar, rasmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ham tahlil jarayonida keng qo'llanildi.

Muhokama

Markaziy Osiyo mamlakatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi mustaqillikdan so'nggi davrda kuchli davlat modeli va avtoritar boshqaruv tamoyillari doirasida olib borilgan siyosiy modernizatsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq. Bu holat mintaqada siyosiy partiyalar faoliyati va ularning siyosiy tizimdagi real o'rniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy partiyalar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning aksariyati ijtimoiy tayanchga ega emas, faoliyati esa yuqoridan tashkil etilgan tashkiliy modelga asoslangan. Aksariyat partiyalar hukumatga yaqin bo'lib, muxolifatga doir real siyosiy kuchlar amaliyotda cheklangan yoki umuman yo'q.

Misol uchun, O'zbekistonda rasmiy ro'yxatdan o'tgan siyosiy partiyalar soni beshta bo'lib, ularning barchasi parlamentda faoliyat yuritadi, biroq ular o'rtasida ideologik tafovutlar deyarli yo'q, siyosiy qarashlar ko'proq texnik ko'rinishga ega. Qozog'istonda esa "Amanat" partiyasi (ilgari "Nur Otan") siyosiy maydonda mutlaq ustunlikka ega bo'lib, raqobatni sezilarli darajada cheklab qo'ygan.[5;32]

Mamlakatlarning konstitutsiyalarida siyosiy pluralizm va ko'ppartiyaviylik kafolatlangan bo'lsa-da, amaldagi qonunchilik partiyalarni tashkil etish va faoliyat yuritish jarayonida bir qator to'siqlarni saqlab qolmoqda. Masalan, partiya ro'yxatdan o'tishi uchun zarur imzolar sonining yuqoriligi, ma'muriy tekshiruvlar va sertifikatlash jarayonlarining murakkabligi partiyalarni mustaqil shakllanishidan to'xtatmoqda.

Qirg'izistonda nisbatan erkin siyosiy muhit mavjud bo'lishiga qaramay, partiyalar ko'p, biroq ularning barqarorligi va davomiyligi zaif. Har bir saylovda yangi partiyalar paydo bo'ladi va ko'p hollarda ular qisqa muddatli siyosiy bloklarga aylanadi.

Mintaqada saylov qonunchiligi partiyalararo raqobatga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Majoritar va proporsional tizimlarning turli shakllarda qo'llanilishi natijasida ko'plab partiyalar saylovda qatnashsa-da, faqatgina hukumatga yaqin partiyalar parlamentda aks etadi. Misol uchun, O'zbekistonda faqat ro'yxatdan o'tgan partiyalar saylovlarda ishtirok etishi mumkin, mustaqil nomzodlarning imkoniyati cheklangan.

Qozog'istonda 2022-yilgi siyosiy islohotlar natijasida proporsional-majoritar tizim joriy etildi, biroq bu o'zgarish hali siyosiy raqobatni sezilarli darajada oshirmagan. Venetsiya komissiyasi va OSCE hisobotlarida qayd etilishicha, partiyalarni moliyalashtirish, ularning axborot maydoniga kirish huquqlari va saylovdagi vakillik masalalarida muvozanat mavjud emas.[6;78]

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada aholining siyosiy partiyalarga bo'lgan ishonchi past darajada saqlanmoqda. Bu holat partiyalarning tashabbuskor emasligi, ijtimoiy

muammolarni hal qilishdagi rolining zaifligi, shuningdek, ular tomonidan real siyosiy pozitsiyaning namoyon etilmasligi bilan bog'liq.

Fuqarolik jamiyati institutlari ham partiyalar bilan kuchli hamkorlikka ega emas. Siyosiy ishtirok madaniyati, ayniqsa, yoshlar orasida sust, bu esa partiyalarning ijtimoiy bazasini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda.

Natijalar

Olib borilgan tadqiqotlar, qiyosiy-huquqiy tahlillar va mavjud siyosiy-huquqiy manbalarni o'rganish natijasida quyidagi muhim ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

Markaziy Osiyo mamlakatlarida partiyaviy tizimlar shakllangan, biroq ular to'laonli demokratik raqobatga asoslangan tizim darajasiga yetmagan. Ko'pchilik mamlakatlarda siyosiy partiyalar mavjud bo'lsa-da, ularning faoliyati ko'proq ramziy va rasmiy tusda bo'lib, real siyosiy muvozanatni ta'minlay olmayapti. Huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy tatbiqi siyosiy pluralizmni to'liq ta'minlashga xizmat qilmayapti. Qonunlarda partiyalarni tashkil etish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritish tartiblari belgilangan bo'lsa-da, bu jarayon ko'pincha byurokratik to'siqlarga duch kelmoqda. Mintaqadagi partiyalar ijtimoiy bazaga ega emas, ideologik jihatdan bir-biridan farq qilmaydi. Ular ko'pincha davlat siyosatini quvvatlovchi yoki uni takrorlovchi rolni bajaradi. Bu esa ularni mustaqil siyosiy institut emas, balki ma'muriy tizim tarkibiga yaqinlashtiradi.(1-jadval)

1-jadval

Davlat	Siyosiy partiyalar haqidagi qonun yili	Saylov tizimi turi	Partiyaviy tizim xususiyati	Raqobat darajasi	Huquqiy asoslar (asosiy hujjatlar)
O'zbekiston	1996-yil (2020-yilda tahrir qilingan)	Proporsional (partiyaviy)	Ko'ppartiyaviy, biroq ideologik biryoqlik	Past	Konstitutsiya, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" Qonun, Saylov Kodeksi
Qozog'iston	2002-yil	Aralash (2023-yildan)	Rasmiy ko'ppartiyaviy, dominant partiyaviy	O'rtacha	Konstitutsiya, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" Qonun
Qirg'iziston		Aralash (ko'p	Raqobatli ko'ppartiyaviy	O'rta-yuqori	Konstitutsiya, Saylov Kodeksi, Partiyalar

	1999-yil	o'zgarishlar)	tizim		to'g'risidagi qonun
Tojikiston	1998-yil	Proporsional	Dominant-partiyaviy tizim, raqobat cheklangan	Past	Konstitutsiya, Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonun
Turkmaniston	2012-yil (1-partiyadan ko'pga o'tish)	Proporsional	De-fakto bir partiyaviy modelga yaqin	Juda past	Konstitutsiya, siyosiy partiyalar haqidagi qonunlar (cheklangan)

1-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarida partiyaviy tizimlarning huquqiy asoslari va rivojlanish ko'rinishi (qiyosiy jadval)

• “Siyosiy partiyalar haqidagi qonun yili” — ushbu sohada mustaqil qonunchilik qabul qilingan sana.

- “Saylov tizimi turi” — parlament saylovlari qanday asosda o'tkazilishini bildiradi.
- “Huquqiy asoslar” — asosiy normativ-huquqiy hujjatlar va ularning amaliy tatbiqi.

Xulosa

Markaziy Osiyo davlatlarida partiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi mustaqillik davrining muhim siyosiy-huquqiy jarayonlaridan biri bo'lib, bu tizim mintaqaning o'ziga xos siyosiy madaniyati, tarixiy merosi hamda boshqaruv modeli bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlarda partiyaviy tizimlarning tashkiliy va qonunchilik asoslari shakllangan bo'lsa-da, ularning funksional samaradorligi, ijtimoiy vakilligi va siyosiy tizimdagi ta'siri hali yetarli darajada emas.

Siyosiy partiyalar ko'pincha davlat siyosatini takrorlovchi rolni bajarmoqda, real siyosiy raqobat muhiti esa cheklangan bo'lib qolmoqda. Saylov tizimidagi adolatsizlik, partiyalarning moliyaviy va tashkiliy mustaqilligining pastligi, shuningdek, ularning aholiga yaqin bo'lmaganligi siyosiy pluralizmning to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, qonunchilikda belgilangan demokratik tamoyillar amaliyotda to'liq tatbiq etilmayotgani, partiyalar faoliyatida tashabbuskorlik yetishmayotgani ham partiyaviy tizimlarning institutsional zaifligiga sabab bo'lmoqda. Mintaqadagi ayrim mamlakatlarda siyosiy partiyalar sonining ko'pligi sifat emas, balki beqarorlik va tizimliliksizlik belgisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyoda partiyaviy tizimlarni chinakam demokratik va raqobatbardosh tuzilmaga aylantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- siyosiy partiyalarning huquqiy maqomini kuchaytirish;
- ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;
- saylov tizimida islohotlar o'tkazish;
- partiyalar faoliyatida aholi ishtirokini kengaytirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy aloqani yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyodagi partiyaviy tizimlar tashkiliy jihatdan mavjud bo'lsa-da, ularning siyosiy tizimdagi real ta'siri cheklangan. Ularning huquqiy maqomi bor, biroq amaliy jihatdan ular raqobatbardosh va mustaqil institut sifatida harakat qilishda muammolarga duch kelmoqda. Mazkur holat siyosiy tizimda haqiqiy pluralizmni shakllantirish va huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sartori G. Partiyalar va partiyaviy tizimlar: Racional tasniflashga asos. – Toshkent: Adolat, 2005. – B. 47.
2. Dyuverje M. Siyosiy partiyalar nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 59.
3. Jo'rayev M. Siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi va ularni rivojlantirish omillari. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 30.
4. Qodirov Z. O'zbekistonda siyosiy pluralizm va partiyaviy tizim evolyutsiyasi. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 33.
5. Imanbayev G. Qozog'istonda partiyaviy tizimning huquqiy asoslari. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Olmaota, 2019. – B. 28.
6. Turdubaeva A. Qirg'izistonda siyosiy partiyalar faoliyati va saylov tizimi. I.f.y.f.d. diss. avtoref. – Bishkek, 2020. – B. 36.
7. OSCE/ODIHR. Uzbekistan Parliamentary Elections Final Report. – Warsaw, 2020. – P. 12–19.
8. Freedom House. Nations in Transit 2023: Uzbekistan. – Washington D.C., 2023. – P. 44.
9. Saidov A. Xalqaro huquq va milliy qonunchilikda siyosiy partiyalar erkinligi. – Toshkent: Adabiyot jamiyati, 2017. – B. 21.
10. Venice Commission. Guidelines on Political Party Regulation. CDL-AD(2010)024. – Strasbourg, 2010. – P. 5–23.